DOI

***Qurdoshev S.S.***
***Jizzax viloyati Forish tuman kasb-hunar maktabi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha director o‘rinbosari***

## IJTIMOIY HIMOYA MUHTOJ O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS YO‘LLARI

*Annatatsiya*
*Maqolada ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni, xususan, ta’lim muassasasi o‘quvchilarini davlat tomonidan himoyalash mexanizmlarining o‘ziga xos intensiv yo‘llari ko‘rsatib berildi hamda ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.*
*Kalit so‘zlar: “Temur tuzuklari”, raiyat, ijtimoiy ish, ijtimoiy himoya, voyaga yetmaganlar, boquvchisi yo‘q bolalar.*

***Kurdoshev S.S.***
***Forish district vocational school of Jizzakh region deputy director for youth work at the school***

## UNIQUE WAYS OF WORKING WITH PUPILS IN NEED OF SOCIAL PROTECTION

*Annotation*
*In the article, specific intensive ways of mechanisms of state protection of layers in need of social protection, in particular, students of educational institutions, were shown and analyzed from a scientific and theoretical point of view.*
*Key words: "Timur's rules", people, social work, social protection, minors, unaccompanied children.*

Amir Temur davrida nafaqat kambag‘allar, balki ziyoli, ilm-ma’rifatli ulamolar, davlat amaldorlari ham ijtimoiy rag‘batlantirgan. Ular tirikchiliklarini bemalol o‘tkazishlari uchun suyurg‘ol tarzida yerlar in’om etilgan, bu esa ularning zimmasidagi vazifalarni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ularga nafaqat yerlar in’om etilgan, balki kundalik va oylik maoshlar ham berilgan.

Bu davrda sipohiylar, qariyalar ham ijtimoiy himoyalangan. “Temur tuzuklari”da yozihshicha, “Qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetarkan, uni oylik haqdan mahram etmaslik va martabasidan tushirmaslik kerak”.

Amir Temur davrida fuqarolarni ijtimoiy himoya qiluvchi zamonaviy til bilan aytganda, “kredit tizimi” ham mavjud edi. “Sarmoyasi qo‘ldan ketib qolgan savdogarga o‘z sarmoyasini qayta tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin”, deyiladi “Tuzuklarda”. Bunday rag‘bat va ijtimoiy himoya nafaqat savdogarlarga, balki millati va elatidan qat’iy nazar, dehqon, hunarmand va



https://wordlyknowledge.uz

boshqa kasb egalariga, barcha fuqarolarga ham tegishli edi. Agarda qaysi ziroatkorning ekin ekishga mablag‘i bo‘lmasa, ularga turli asbob va kerakli narsalar berilgan. Bu haqda “Tuzuklar”da shunday ma’lumotlar bor: “Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asbob berilsin”.Bu davrda agarda fuqarodan birining imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar va yordam berilgan.

Amir Temur boshqa mamlakatlar mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelgan, maxsus shifoxonalar ochtirgan. Amir Temurning ijtimoiy siyosati tom ma’noda baynalminal siyosat edi. “Tuzuklar”ida: “Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turku tojik, arabu ajam toifalaridan bo‘lganlar birinchi navbatda, mazkur toifa va tabaqalardan sayyidlar va ulamoni izzat-hurmat qilishni, har qanday istaklari bo‘lsa, darhol muhayyo etib, muqarrar ravishda ularning ahvolidan xabardor bo‘lib turishni buyurdim. Agar sipohiylar toifasidan bo‘lsalar, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa, o‘z ahvoli, kasbi koriga qarab ish tutsinlar”. Shubhasiz, sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy siyosati adolat va taraqqiyot omillaridandir. Zero, adolat – ijtimoiy ishning asosiy tamoyillaridan biridir.

Amir Temurning ijtimoiy siyosati soliqlar masalasida ham yaqqol ko‘rinadi: “Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak”. Amir Temur fikricha, “raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘allanishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida saltanatni kuchsizlanishga olib boradi”. U fuqarodan soliqlar yig‘ishda ularning imkoniyatlarini ham inobatga oladi.

Bu borada yana bir ulug‘ alloma Abdurahmon Jomiy ijtimoiy himoya va insonparvarlik haqida quyidagi misralarni yozgan:

*Agar uyidan chiqarib bersa bori yo‘q yarimta nonini gado,*
*Yarim xazinasini bergan podshohdan saxiylik bobida shu gado a’lo!*

Demak, o‘ha vaqtlardayoq muhtojlarga yordam berishlik, oshna-og‘ayni, yor-birodar bir-biriga qarz, sovg‘a-salom berishlik, hadya qilishlik, ko‘p bolali, nogiron, kambag‘al, beva-bechoralarga ushr, zakot, sadaqa, fitr-ro‘za (Ramazon oyining oxirida) berishlik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

XV asrda Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda shifoxonalar barpo etilishi keng tarqalgan. Bunday jamoat shifoxonasi “Dor ush-shifo” (“Davolash uyi”) nomi bilan yuritilib, ularda tabiblar bemorlarni davolaganlar. “Dor ush-shifo”da maxsus dorixonalar bo‘lib, ularda doripazlar bemorlar uchun dori-darmonlar tayyorlab berganlar.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili hazrat Alisher Navoiy Hirotda bosh muhrdor va vazirlik lavozimlarida ishlaganida ham, Astrobodda hokim bo‘lganida ham, davlat yumushlaridan iste’foga chiqib, Hirotda yashagan davrlarida ham xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilib, bunyodkorlik ishlari bilan shug‘uliandi. Zero, uning o‘zi:



https://wordlyknowledge.uz

*Odami ersang, demagil, odami*
*Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*

– degan edi. Shu so‘zlarning o‘ziyoq Alisher Navoiyning faoliyatini va inosoniyatni odamlarga, xususan, miskinlarga, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga yordam berish masalasida hatto davlat darajasidagi amaldorlar ham ma’sul ekanligini izohlab turibdi.

Bugun yurtimizda amlaga oshirilayotgan islohotlar “inson qadrini” ulug‘lash tamoyili asosida amalga oshirilib borilmoqda. Tabiyki, shaxs shakllanishida albatta “davlat bosh islohotchi” bo‘lishni taqozo qiladi. Ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar bolalar, ayollar, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni birinchi navbatda davlat o‘z taraqqiyotining bosh mezoni deb qaralmog‘i lozim ekanligiga urg‘u berib borishi muhim va ayni chog‘da dolzarb ekanligini muhimdir.

Bu borada aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tashkilot va muassasalari (Muruvvat, Sahovat uylari, ijtimoiy ta’minot muassasalari va boshqalar), xalq ta’limi (Mehribonlik uylari, Vasiylik va homiylik organlari, umumta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktabgacha va maktab muassasalari, yordamchi ta’lim muassasalari va boshqalar), sog‘liqni saqlash (oilaviy poliklinikalar, maxsus tibbiyot muassasalari, reabilitasion markazlar, tibbiy pedagogik psixologik komissiyalar va h.k.), hokimiyatlar huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar hamda litseylar va boshqa ta’lim muassasalarida tarbiyalanayoigan, ta’lim olayotgan bolalar va o‘quvchilarni har tomonlama davlat o‘z himoyaga olish muhimdir.

Bu islohotlarni bekamiko‘s amalga oshishida albatta, hududiy xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, mehnat va ijtimoiy himoya bo‘yicha boshqarmaning viloyat, shahar va tuman organlari, ichki ishlar organlari; tuman, shahar va viloyat hokimiyatlari; mahalla; jamoatchilik tashkilotlari va uyushmalari ma’sul ekanligini va ularni bu masala bo‘yicha qa’tiyroq harakat qilishini hayotning o‘zi undamoqda.

Shuningdek, Davlatimizda ham ijtimoiy ishchilarning mijozlari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, ko‘mak, yordam, xizmat ko‘rsatish va muhofazaga muhtoj bo‘lgan odamlar hisoblanadi. Bu borada quydagilarga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim:

- bolalar va yoshlar: ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar, alohida ehtiyojli bolalar, OIV bilan azoblanayotgan bolalar, huquqiy xatar guruhidagi yoki qonun bilan nizoga kirgan bolalar, institusional muassasalarining tarbiyalanuvchilari va bitiruvchilari, ixtisoslashtirilgan o‘quv va o‘quv-tarbiyaviy muassasalarning o‘quvchilari va bitiruvchilari, nazoratsiz qolgan bolalar, shafqatsiz yoki sovuqqon munosabatni boshidan kechirgan, zo‘ravonlikning guvohi bo‘lgan bolalar, trafik, mehnatning eng yomon shakllari va barcha turdagi ekspluatasiyaga tortilgan bolalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolardan azoblangan bolalar va boshqalar;



https://wordlyknowledge.uz

- oilalar va ayollar – kam ta’minlangan oilalar, ko‘p bolali oilalar, ota-onasidan biri bo‘lmagan oilalar, a’zolarining birida OIV bo‘lgan oilalar, alohida ehtiyojli a’zosi bo‘lgan oilalar, krizis vaziyatidagi (oila a’zolaridan birining o‘limini, ajrashish, nizolar, uydagi zo‘ravonlik, ko‘chib o‘tishni boshidan kechirgan va h.k.) oilalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolar jabr tortgan oilalar, tutingan oilalar va bolalikka olgan oilalar;

- nogironligi bo‘lgan odamlar va ularning oilalari;

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj keksa odamlar;

- murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlar;

- ish, turar joyini yo‘qotgan, yaqin insonining o‘limi yoki og‘ir kasallikni boshidan kechirgan, surunkali kasalliklari bo‘lgan odamlar va boshqalar;

- OIV bilan yashayotgan odamlar;

- spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarga tobeligi bo‘lgan odamlar bugun davlaimiz ko‘magiga va e’tiboriga muhtojdir.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi qisqa muddatli chora-tadbirlarga emas, balki insonlarni taqdir taqozosi bilan tushib qolgan qiyin vaziyatdan olib chiqish va tinch-osuda hayotga qaytarish uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat organlari aholi bilan qay darajada ishlash kerakligi to‘g‘risida yuqori mezonlarni belgilab berdi. O‘tgan yillar davomida bu jarayonlar faqat quruq so‘z bo‘lib qolmasdan, balki amalda, hayotimizda ro‘y berib, jamoatchilikning fikrlashini o‘zgartiruvchi jiddiy katalizatorga aylanganining guvohi bo‘ldik. Davlat organlari aholining murojaatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berishga, oddiy insonlarning muammolarini o‘rganib, ularni hal qilishga, yuzma-yuz muloqot o‘rnatishga harakat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi keskin o‘zgarishlar yillab o‘z yechimini topmagan ayrim eski muammolarni qayta ko‘rib chiqishga va hal etishga yordam bermoqda.

Oxirgi yillar mobaynida jamiyat hayotida bo‘lib o‘tgan yorqin hodisalar jamoatchilik e’tiborini befarq qoldirmadi (menimcha, bunday voqealar avval ham bo‘lgan, biroq ular to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari endi yoza boshladi). Hayot zarbalari bir necha ayollarni o‘z joniga qasd qilishga undadi. Dahshatlisi shuki, ayol nafaqat o‘z joniga qasd qilmoqda, balki o‘zi bilan birga farzandlarining umriga zavol bo‘lmoqda. Andijon viloyatining Jalaquduq tumanida ona o‘ziga 3 yoshli hamda 7 yoshli farzandlarini bog‘lab kanalga sakragan. Berilgan xabarlardan ma'lum bo‘lishicha, u Daun sindromi bor farzandini voyaga yetkazgan. Ehtimol, jamiyatda nogironligi bor insonlarga odamlar tomonidan «bir qolipga solingan» qarashi hamda professional ijtimoiy xizmatlarning mavjud emasligi sababli (bu narsa chekka hududlar-qishloqlarda yaqqol seziladi) ona hayotning og‘ir zarbasini ko‘tara olmagandir?!..

Agar avval nogironligi bor bolalarni maxsus internatlarga joylashtirish normal holat bo‘lgan bo‘lsa, hozirda dunyo miqyosida barcha narsa inklyuziv model asosida tashkil qilinmoqda; ya’ni nogironligi bor bolalarning ijtimoiy hayotga moslashtirish o‘z oilasida, oddiy umumta’lim maktablarida, yordamchi



https://wordlyknowledge.uz

pedagog yoki maxsus sinflar orqali inklyuziv ta’lim berish yordamida amalga oshirilmoqda. Nogironligi bor bolalarning ota-onasiga maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan ijtimoiy xizmatlar, reabilitatsiya markazlari, ota-onalarning bir-biriga ko‘mak berish guruhlari yordam bermoqda. Agar yuqorida keltirib o‘tilgan ayolning hayotida ham shunday muhit bo‘lganida, bu voqeaning rivoji boshqacha bo‘lar edi.

Endi yechim haqida gaplashsak. Jahon tajribasi asosida fikr bildirish mumkinki, ijtimoiy himoya ikki ustun – ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy faoliyat asosida yuzaga keladi.

1. Ijtimoiy ta'minot tizimi -hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan va Pensiya jamg‘armasi tomonidan ajratiladigan pul mablag‘lari vositalari ko‘rinishidagi turli to‘lov dasturlarni o‘z ichiga oladi.

2.Ijtimoiy ish tizimi – insonlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarini bartaraf etishda qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish, realibitatsiya orqali yordam berishga qaratilgan kasbiy faoliyat hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini ta’minlash uchun yagona muvofiqlashtiruvchi organ faoliyati kerak bo‘lib, u ijtimoiy himoya va ijtimoiy ishni samarali amalga oshirish uchun tuman tizimidan boshlab, barcha davlat tuzilmalari hamda nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Ushbu organ turli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, turli tashkilotlar tomonidan ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy ta’minot dasturining amalga oshirilishi va boshqarilishini monitoring qilish uchun mas’ul bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytish kerakki, bugungi kunda ijtimoiy himoyaga muhtojlarni va davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan to‘lovlarni hisob-kitob qiluvchi yagona tizim yo‘q, bu esa ajratilgan mablag‘larning sarflanish samaradorligini pasaytiradi. Shunday ekan**,** ijtimoiy himoyaga muhtojlarni hisobga oluvchi Yagona reyestrni tashkil etish talab qilinadi, unda Pensiya jamg‘armasi, Soliq qo‘mitasi, TMEKdan nogironligi bor insonlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha dalolatnoma, shuningdek, yordamga muhtoj ta’lim muassasasi o‘quvchilari to‘g‘risida mahalladan ro‘yxatdan o‘tganligi va shu kabi hujjatlarni davlat ma’lumotlar bazasiga joylashtirilishi lozim. Yagona axborot tizimining mavjud emasligi mablag‘larning samarasiz taqsimlanishi va yordamdan qisqa muddatda yoki maqsadsiz foydalanish xavfiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Temur tuzuklari” Toshkent: “Sharq nashriyoti”, 2008 yil
2. https://kun.uz/uz/news/2018/07/25/aolining-imoaga-mutoz-katlami-kimlar-kamrov-nioatda-keng



https://wordlyknowledge.uz